

MUSHUKSIMONLAR OILASI

Maxmudova Nodira Abduvoxit qizi

Shernazarov Zokirjon Shahobiddin o'g'li

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi

tabiatmuzeyi1876@umail.uz

Annotatsiya. Mushuksimonlar oilasiga kiruvchi turlar ham noyob ham tabiat ekotizimining ajralmas qismidir. Ushbu maqolada tabiatning rango-rangligini boyituvchi hayvonlar – mushuksimonlar oilasi vakillari haqida keng yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston tabiat muzeyi ekspozitsiyalaridan joy olgan ayrim mushuksimonlar oilasi vakillariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mushuksimonlar, Felidae, [yirtqich sutemizuvchilar](#), Turon yo'lbarisi, Pantherinae, Felinae, Qizil Kitob.

Mushuksimonlar (*Felidae*) [yirtqich sutemizuvchilar turkumi oilasi](#). Kattaligi har xil. Boshi yumaloq, dumi odatda uzun. Oyoqlari nisbatan uzun, barmoqlarida yuradi. Oldingi oyoqlari 5 barmoqli (1 barmog'i boshqalaridan balandroqda joylashgan), orqa oyoqlari 4 barmoqli. Tirnoqlari yurganida oyog'i ichiga tortiladi (gepardlarda tortilmaydi). Yirtqich, tunda faol hayot kechiradi, yirtqich tishlari yaxshi rivojlangan, oziq tishlari o'tkir qirrali. Mushuksimonlarning juni odatda qisqa, har xil rangli. 4 urug' (yirik mushuklar, mushuklar, qor qoplonlari, gepardlar), 36 turi Avstraliya va Antarktidadan tashqari barcha qit'alarda tarqalgan. Ko'pchiligi yiliga bir marta 1-7 tadan bola tug'adi. O'ljasiga pana joyda poylab turib tashlanadi. Ko'pchilik turi tutqinlikda ham ko'payadi. Ayrim turlari mo'ynasi uchun ovlanadi; chorvachilikka qisman ziyon keltiradi. 15 turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.



1-rasm. Mushuksimonlar oilasi vakili

Taksonomiyaga asosan mushuklar 2 ta kichik oilaga bo'lingan: kichik mushuklar (*Felinae*) va katta mushuklar (*Pantherinae*). Har bitta mushuksimonlar oilasi turkumlarga bo'lingan. O'zbekistonda 8 turi (irbis, gepard, silovsin, qoraquloq, to'qay mushugi, manul, qum mushugi, yovvoyi mushuk) yashaydi.

Mushuksimonlar oilasi vakillariga yo'lbars, gepard, silovsin, qoraquloq, to'qayzor mushugi, dasht mushugi, pantera, puma, manul, pampass mushugi, otselot, onsilla, serval kabi dunyo bo'ylab tarqalgan turlarni o'z ichiga oladi. Hamda, ushbu hayvonlar tulumining ko'pchiligini O'zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyalaridan joy olgan. Quyida ular haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Turon yo'lbarasi. Dunyoda 7 ta yo'lbars turi mavjud: amur, xitoy, sumatra, yava, bash, hind (bengal) va turon. Turon yo'lbarasi Amur yo'lbarsidan keyin ikkinchi o'rinda turadigan eng yirik mushuksimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich bo'lgan.

Turon yo'lbarsining uzunligi 180-280 sm, dumi 90 sm, salmog'i esa 220-300 kg edi. Hayot faoliyati asosan oqshom tushishi bilan tonggacha bo'lgan. Turon yo'lbarasi 1940-yillarga qadar Qoraqalpog'istonning 30 dan ortiq hududida uchrab turgan. Ular asosan Amudaryo deltasidagi to'qayzorlarda, changalzorlarda, balandligi 4-7 metr keladigan qalin qamishzorlar orasida yashagan. Haqiqatdan ham, Turon yo'lbarasi odamga birinchi bo'lib tashlanmagan, yaralanganda yoki quvg'inga uchragandagina hujum qilishi mumkin edi. Suvda yaxshi suzgan, ovga


faqat qorong'u tushganda chiqqan. Ularning umr davomiyligi 40-50 yilni tashkil etgan.

Qoraqalpog'istonda yo'lbarzlarning bosh soni 1920-30-yillarda 70 ta bo'lgan bo'lsa, 1940-yillarga kelib 20 taga kamaygan. 1942-yilda, 1947-yilda 6 tasi qayd qilingan. 1935-yildan 1950-yilgacha 11 ta yo'lbars otib o'ldirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Qoraqalpog'iston hududida yo'lbars 1957-yilgacha yashagan. Turon yo'lbarsining qirilib ketishiga XIX asrda odamlarning Markaziy Osiyoga ommaviy migratsiyasi sabab bo'lgan. Ko'pchilik hollarda yirtqich hayvonlarni harbiylar otib tashlashgan. Chunki yirtqichlardan aziyat chekkan mahalliy aholi harbiylardan ularni otib tashlashni so'ragan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun o'rmonzorlarning ko'p miqdorda qirilib tashlanishi ularning yashash joylaridan mahrum qilinishiga va ozuqasidan ayrilishiga olib kelgan. Qoraqalpog'iston tarixi va madaniyati muzeyi ko'rgazmasidagi yo'lbars mintaqadagi oxirgi Turon yo'lbarzi bo'lib, muzeyga 1980-yilda Nukus shahrida istiqomat qiluvchi fuqaro Delbar Ishkulov tomonidan topshirilgan va narxi 2000 rublga baholangan. So'nggi 4 yil davomida leningradlik taksidermist M.A.Zaslavskiy tomonidan ishlov berilgan.

2-rasm. Ekspozitsiyadagi Turon yo'lbarzi tulumini



3-rasm. Turon yo'lbarzi



To'qay mushugi. Mushuksimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon bo'lib, odatda, Amudaryo daryosining o'rta va quyi oqimlaridagi to'qayzor va suv

havzalarining qirg'oqbo'yi zonasidagi chakalakzorlarda yashaydi.

Tanasining uzunligi 60-90 sm, dumi 21-30 sm, vazni 8-12 kg. Tashqi ko'rinishidan silovsinga o'xshab ketadi. Qushlar, kemiruvchilar va quyonlar bilan oziqlanadi.

O'lchamlari va vazni turli xil bo'lishi mumkin: 35 sm va 1 kg (dog'li qizil mushuk) dan 3,8 m va 300 kg (Amur yo'lbarisi). Old oyoqlari besh barmoqli, orqa oyoqlari to'rt barmoqli. Gepard va Sumatran mushuklaridan tashqari barcha turlar tortiladigan tirnoqlarga ega. Boshqa yirtqich hayvonlarga qaraganda tishlari kamroq (28-30), shuning uchun tumshug'i qisqa va boshi yumaloq ko'rinadi. Tish tizimi aniq yirtqich tipga ega. Til kichik, uchli shoxli papilla bilan qoplangan, bu mushuklarga go'shtni suyaklardan va toza mo'ynadan tozalashga yordam beradi. Aksariyat turlarning dumi uzun.



4-rasm. To'qayzor mushuklarining ekspozitsiyaga qo'yilgan tulumlari

Rangi kul rangdan qizil-jigarrangacha; odatda chiziqlar, dog'lar yoki rozetlar bilan bo'ladi. Soch chizig'i past, shimoliy va baland tog'li turlarda yanada yumshoqroq. Sezgi a'zolaridan eshitish va ko'rish yaxshi rivojlangan, hid sezgilari esa zaifroq. Mushuklar juda baland tovushlarni eshitishlari mumkin - chastotasi 80 kHz gacha (odamlar - faqat 20 kHz gacha).

Hayot tarzi asosan tungi. Yolg'iz yoki oila bo'lib yashaydi. Kichik turlar har yili yoki tez-tez ko'payadi (uy mushuklari), yirik turlari - 2-3 yilda bir marta. Kichik turlarda 5-6 tagacha, yirik turlarida 2-4 tagacha bor. Kichkintoylar ko'r va ojiz bo'lib

tug'iladi. Bolalarni onasi tarbiyalaydi, otasi ularga kamdan-kam hollarda g'amxo'rlik qiladi. O'rtacha umr ko'rish 30 yilgacha.

Qoraquloq. (ing. Caracal) – mushuksimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon. U birinchi marta 1776-yilda nemis tabiatshunosi Johann Christian Daniel fon Schreber tomonidan fanga kiritilgan. *Felis caracal* 1776-yilda Johann Christian Daniel fon Schreber tomonidan qo'llanilgan ilmiy nom bo'lib, u Yaxshu umid burnidan topilgan Qoraquloq turini bu nom bilan atagan. 1843-yilda Jon Edvard Grey uni *Caracal* turiga joylashtirgan. XIX—XX asrlarda bir nechta Qoraquloq turlari topilgan va kichik turlar sifatida alohida Felinae oilasiga qo'shilgan. 2017-yildan boshlab uchta Qoraquloq bu kichik turga kiritilgan deb tan olingan. Qoraquloqlarning yelkasining o'lchami o'rtacha 40 sm dan 50 sm atrofida bo'ladi va og'irligi taxmin 8 kgdan 19 kg ni tashkil qiladi. Tanasining o'lchami esa 65 sm dan 82 sm gacha yetadi, dumining uzunligi 25 sm dan 30 sm gacha bo'ladi.



5-rasm. Ekspozitsiyadagi Turkman qoraquloq tulum




6-rasm. Turkman qoraquloq'i


Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo hamda Pokiston, Hindiston shimoli-g'arbiy qismidagi qurg'oqchil hududlari, Afrika va Osiyo cho'llarida yashaydi. O'rta Osiyoda Turkmaniston janubida uchrashi mumkin. Qoraqalpog'istonning Ustyurt yassi tekisligi va Amudaryoning quyi oqimi, avvallari g'arbiy Qizilqumda ham uchragan. Quyov, mayda kemiruvchilar (qum-sichqonlar) va qushlarni tutib yeydi. Soni kamayib ketgan. Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan. O'zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyalaridan joy olgan Turkman qoraquloq'i tulum taksodermist

S.R.Xudayberdiyev tomonidan ishlangan bo'lib, muzey fondiga 1970-yilda Toshkent hayvonot bog'idan keltirilgan.

Gepard. (*Acinonyx jubatus*) — mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi, gepardlar (*Acinonyx*) urug'ining yagona turi. Tanasining uzunligi 123—150 sm, dumi 63—75 sm. Oyoqlari uzun va ingichka, tirnoqlari ichkariga tortilmasligi bilan boshqa mushuksimonlardan farq qiladi. Yungi sarg'ish qum rangda, mayda qora dog'lar bilan tekis qoplangan. Bolalari tanasining ustki tomonidagi uzun tik yunglari paxmoq mantiya (yoping'ich) hosil qiladi. Afrika, Jan.-g'arbiy Osiyo (Eron, Afg'oniston, Balujiston) va O'rta Osiyoda tarqalgan. 1972-yilgacha onda-sonda Turkmanistonning jan.da uchrab turardi. Kunduzi hayot kechiradi. To'qay, dasht, cho'l va tog' etaklarida yashaydi. Tuyoqli hayvonlar (kiyiklar, qo'ylar)ni ov qiladi. O'ljasiga pana joydan tashlanadi va qisqa masofada quvib yetadi (tezligi soatiga 110 km gacha). Qadimda qo'lga o'rgatilgan geparddan ov qilishda foydalanilgan. Hozir soni juda kamayib ketgan, tabiatda butun dunyo bo'yicha bir necha yuzta saqlanib qolgan. O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan. Tutqunlikda yaxshi ko'payadi. O'zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyalaridan joy olgan Gepard tulumu taksodermist V.A. Uinlakov tomonidan ishlangan bo'lib, muzey fondiga 1978-yilda Toshkent hayvonot bog'idan keltirilgan.



7-rasm. Gepardlar



8-rasm. Ekspozitsiyaga qo'yilgan
O'rta osiyo gepardi tulumu

Qoplon—[panteralar urug'iga](#) mansub [yirtqich sut emizuvchi hayvon](#). Mo'ynasi qalin, sarg'ish tusda, qora halqa dog'lari (xollari) bor. Gavdasining uzunligi 92–183 sm, dumi 66–102 sm. Tanasi cho'ziq, oyoqlari qisqa. Erkaklari tanasining og'irligi odatda 30.9–72 kg, urg'ochilariniki esa 20.5-43 kg. 4-5 ta, ko'pincha 2-3 ta bola tug'adi. [Afrika](#) va [Osiyoda](#) uchraydi. Asosan, [tuyoqlilar](#) va [primatlarni](#) ovlaydi. Soni keskin kamayib ketgan. [Xalqaro Qizil kitobga](#) kiritilgan.

Ilvirs yoki **qor qoplani** (*Uncia uncia* yoki lot. *Panthera uncia*) — [mushuksimonlar oilasiga](#) mansub yirik va [yirtqich hayvon](#) bo'lib, ushbu oila vakillari orasida sovuq iqlimda yashovchi yagona tur. O'rtacha yashash davri — 21 yilgacha. [Tana](#) uzunligi 103-130 sm, dumi 80-105 sm.

Erkak qoplonlar 75 kg gacha yetadi, Leopardga o'xshash, lekin juni kulrang-sarg'ish qoramtir xolli bo'lishi bilan undan farq qiladi. Yungi qalin va paxmoq bo'ladi. [Markaziy](#) va [O'rta Osiyoning](#) baland tog'li hududlarida 2000 m balandlikda, doimiy [muzliklar](#) chegarasida uchraydi. Tog' tuyoqli hayvonlari (asosan, [tog' qo'ylari](#)), ba'zan [quyon](#), [sug'ur](#) kabi kemiruvchi hayvonlar bilan oziqlanadi. Qoplon tez-tez o'ljasiga pistirmadan, yuqoridan hujum qiladi. O'ljasini ovlash vaqtida bir necha katta sakrashlarni amalga oshiradi, ammo uning ortidan quvmaydi. Qoq qoplani odamga juda kamdan-kam hollarda hujum qiladi, hatto yarador bo'lsa ham. O'zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyalaridan joy olgan qor qoplani tulumu taksodermist Zaslowskiy tomonidan ishlangan bo'lib, muzey fondiga 1973-yilda Leningrad shahridan keltirilgan.



9-rasm.. Qor qoplani



10-rasm. Ekspozitsiyaga qo'yilgan qor qoplani tulumu.

Qayd etilishicha, qor qoplari – Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi va O'zbekiston «Qizil kitob» iga kiritilgan dunyo miqyosidagi noyob tur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби, II жилд: Ҳайвонлар; Ж.А.Азимовнинг умумий таҳрири остида. Т.: “Chinor ENK” экологик-ноширлик компанияси. – 374 б. – ТИТ. в. Ўзбек, рус ва инглиз тилларида А.Аъзамов. - Т.: “Sharq”, 2014. - 744 б.
2. Ibodova Mahfuza Namozovna Zoologiya [Matn] : o'quv qo'llanma / M.N. Ibodova. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 328 b.
3. Zohidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. 4 tomlik. — Т.: Fan, 1957, 1960, 1969, 1979.
4. www.wikipedia.uz